

---

Qo'shtepa tumanida "Yashil makon" umummilliylar loyihasining kuzgi mavsumi uyushqoqlik bilan olib borilmoqda

Qo'shtepa tumanida "Yashil makon" umummilliylar loyihasining navbatdagi mavsumi ham uyushqoqlik bilan olib borilmoqda. Tuman hokimligi, tuman Obodonlashtirish bo'limi, Mahalla uyushmasi, Ekologiya hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda "Farzandim kelajagi uchun bir tup daraxt", "Mening bog'im" kabi ommaviy tadbirlarni tashkil etishga kirishildi. Tadbirlar davomida har bir mahallada yo'l chetlari va bo'sh turgan maydonlarda ko'kalamzor maskanlar tashkil qilish ko'zda tutilgan.

Shu munosabat bilan bugun Qo'shtepa tumani markazida "Yashil makon" umummilliylar loyihasi doirasida ko'rgazmali seminar tashkil etildi va manzarali daraxt hamda gul ko'chatlari ekildi.

Tadbirda tuman hokimi A.Abdullayev va sektor rahbarlari ham ishtirok etishdi.





















2024-11-19 15:50:24